



O`zbekiston Respublikasida qurilish ishlari

(2019-yil yanvar-oktabr)


2019-yilning yanvar-oktabr oylarida O`zbekiston Respublikasida jami **56 292,4** mlrd. so`m qurilish ishlari bajarilgan bo`lib, o`sish sur`ati o`tgan yilning mos davriga nisbatan **118,9** %ni tashkil etdi.




Qurilish ishlari hajmi




O`tgan yilning mos davriga nisbatan o`sish sur`ati




Davlat va nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar bo`yicha qurilish ishlari



Yirik tashkilotlar



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

Joriy davrda jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **13 238,2** mlrd. so`mni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda **6,2 %**ga ko'p ishlar bajarilgan bo'lib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkich darajasidan **2,7 %** punktga kamaygan.


Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi joriy davrda qurilish ishlarini bajargan boshqa tashkilotlarga nisbatan keskin oshganligi kuzatildi. Ular hissasiga jami qurilish ishlari hajmining **55,2 %**i to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan **4,5 %** punktga ko'paydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan **129,0 %**ni tashkil etgan holda **31 099,7** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,9 %** punktga kamayib, **21,3 %**ni tashkil etdi va **11 954,5** mlrd. so'm miqdorida qayd etildi. O'tgan yilning mos davridagi hajm bilan solishtirganda **111,0 %**ni tashkil etgani kuzatildi.




Davlat va nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar bo'yicha qurilish ishlari

2019-yil (yanvar-oktabr)


Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **3 504,7** mlrd. so'm yoki 2018-yilning yanvar-oktabriga nisbatan **152,9 %** qurilish ishlari bajarildi, nodavlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan esa **52 787,7** mlrd. so'm ishlar bajarilib, o'sish sur'ati **117,2 %**ni tashkil etdi. Ularning respublikadagi ulushlari mos ravishda **6,2 %** va **93,8 %**ni tashkil etdi.



Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruktsiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



72,9 %

41 046,1 mlrd.so'm

**Bino va inshootlarni qurish
bo'yicha qurilish ishlari**



13,5 %

7 617,0 mlrd.so'm

**Fuqarolik obyektlarini qurish
bo'yicha qurilish ishlari**



13,6 %

7 629,3 mlrd.so'm

**Ixtisoslashtirilgan qurilish
ishlari**


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan %da)

Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi **20,5 %**ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **5,2 %** punktga kamaydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **6,9 %** punktga ko'payib, **50,4 %** ni tashkil etdi.




■ 2018-yil yanvar-oktabr ■ 2019-yil yanvar-oktabr

Norasmiy sektorning ulushi esa o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **1,7 %** punktga kamayib, **29,1 %**ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan % da)

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi **44,3 %** ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan **7,8 %** punktga ko'paydi.




■ 2018-yil yanvar-oktabr

■ 2019-yil yanvar-oktabr

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda **55,5 %** (**3,8 %** punktga kamayish) va norasmiy sektorning ulushi **0,2 %** ni (**3,0 %** punktga kamayish) tashkil etdi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

(jamiga nisbatan %da)



■ 2018-yil yanvar-oktabr ■ 2019-yil yanvar-oktabr

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **0,2 %** punktga kamaydi va **18,6 %**ni tashkil etdi. Qolgan **81,4 %** kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to`g`ri kelib, o`tgan yildagi ko`rsatkichga nisbatan **0,2 %** punktga ko`paydi.



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari


(2019-yil yanvar-oktabr)

(mlrd. so'm)

	Qurilish ishlari hajmi	Shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:		
		Binolar va inshootlar qurilishi	Fuqarolik qurilish obyektlari	Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari
O'zbekiston Respublikasi	56292,4	41046,1	7616,9	7629,4
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2719,0	1825,5	369,6	523,9
viloyatlar:				
Andijon	3286,7	2419,5	300,6	566,6
Buxoro	3592,8	2482,7	575,4	534,7
Jizzax	1812,7	1405,3	242,6	164,8
Qashqadaryo	3861,1	2854,6	472,2	534,3
Navoiy	2873,1	2038,8	338,8	495,5
Namangan	2653,0	1905,5	242,9	504,6
Samarqand	3560,5	2738,1	350,4	472,0
Surxondaryo	3272,0	2230,2	859,9	181,9
Sirdaryo	1218,8	889,2	205,7	123,9
Toshkent	3653,8	2612,3	470,9	570,6
Farg'ona	3434,7	2595	440,1	399,6
Xorazm	2164,2	1721,5	298,9	143,8
Toshkent sh.	12665,9	7803,8	2448,9	2413,2

Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

(o'tgan yilning shu davriga nisbatan %da)



Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

(2019-yil yanvar-oktabr)

(mlrd. so'm)

	Qurilish ishlari hajmi	O'tgan yilga nisbatan, foizda	Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya
O'zbekiston Respublikasi	56292,4	118,9	42698,5
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2719,0	122,4	1944,3
viloyatlar:			
Andijon	3286,7	110,5	2248,5
Buxoro	3592,8	118,2	2141,5
Jizzax	1812,7	127,1	1434,5
Qashqadaryo	3861,1	111,8	2805,6
Navoiy	2873,1	131,3	2174,6
Namangan	2653,0	136,5	1942,6
Samarqand	3560,5	121,9	2807,6
Surxondaryo	3272	124,3	2769,1
Sirdaryo	1218,8	122,6	817,8
Toshkent	3653,8	137,4	2675,2
Farg'ona	3434,7	120,6	2325,8
Xorazm	2164,2	125,3	1777,9
Toshkent sh.	12665,9	129,6	9309,7

Hududlar kesimida eng yuqori o'sish sur'atlari bilan bajarilgan qurilish ishlari

Toshkent viloyati (137,4 %):

- Toshkent viloyati Qibray tumanidagi namunaviy yo'llarni rekonstruktsiya qilish ishlari;
- Toshkent viloyati Bektemir va Bo'stonliq tumani yo'nalishidagi yo'llarni ta'mirlash ishlari;
- Kollektorlarni ta'mirlash va tiklash ishlari;
- Irrigatsiya tizimi suvi tezligini sunduruvchi inshootlar qurish .

Namangan viloyati (136,5 %):

- Namangan shahrining Uychi va Yangiobod ko'chalarida ta'mirlash ishlari olib borilmoqda;
- Viloyat bo'yicha yuqori kuchlanishdagi elektr havo liniyasi qurish ishlari bajarilmoqda.

Navoiy viloyati (131,3 %):

- "Ko'kpatas " va "Daugiztau" konlarining og'ir rudalaridan oltin qazib olish texnologiyasini takomillashtirish, "Auminzo-Amantay" oltin ma'danlari koni (5-GMZ) qurilishi (I-II bosqich), "Amudaryo-Zarafshon" suv yo'lining 3-yo'nalishi bo'yicha nasos stansiyasi rekonstruksiyasi;
- "Samarqand-Buxoro-Turkmanboshi" M-37 avtomobil yo'lini ta'mirlash;
- Karmana, Xatirchi, Navbahor, Qiziltepa tumanlarida kanallar, drenajlar va kollektorlar qazish ishlari.

Toshkent shahar (129,6 %):

- Ko'prik va "Yunusobod" metro liniyasi qurilishi, elektr poyezdlar uchun halqa temir yo'l qurilishi, shuningdek, "Angren-Pop" temiryo'l liniyasi atroflarini to'sish;
- Toshkent metropolitenining "Sergeli" liniyasi qurilishi, Mahtumquli (Taraqqiyot) ko'chalari va Ohangaron yo'li kesishmasida yo'l o'tkazgich

qurilishi, yer usti halqa liniyasini qurish ishlari amalga oshirildi;

- "Toshkent City" va "Olmazor City"lar qurilishi;
- Sobiq Toshkent chinni zavodi hududida "Yangi Olmazor" turar-joy majmuasi qurilishi;
- "Oloy" turar-joy binosi qurilishi.
- "Toshkent - Sharqiy" aerodromi bazasida zamonaviy fuqaro aeroporti majmuasi qurilishi;
- "Navro`z" bog`i qurilishi;
- "O`zbekfilm" bino va inshootlarini rekonstruksiya qilish;
- Xalqaro Islom madaniyati markazi qurilishi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi (122,4 %):

- O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 16-yanvardagi 37-son qaroriga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi Mo'ynoq tumanini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari;

- TQVZ texnogen ajratmalarini qayta ishlash kompleksi qurilishining 1-2 bosqichi. KP 73 dan TQVZ gacha bo'lgan texnologik quvurlarning ichki tarmoqlaridagi suv quvurlarini qurish;

- Xo`jayli va Qo'ng'iro't tumanlarida kollektorlarini qazish , "Hayranli" va "Hatep" kanallarini rekonstruksiya qilish;

- Ellikqal'a tumanida "KT-1", "K-5", "Akchakul", "KT-3", "K-4", "K-11", "Guliston", "K-1 Sho`rtanbay" kollektorlari, shuningdek, Nukus tumanida "Kerdar" kanalini ta'mirlash-tiklash ishlari bo'yicha katta hajmdagi qurilish ishlari bajarildi.

Farg'ona viloyati (120,6 %):

- Qo'qon shahrida "Hunarmandlar festivali"ga tayyorgarlik. Shahar ko'chalari yo'llarini joriy ta'mirlash ishlari;


- Yozyovon, Qo'shtepa, So'x va Beshariq tumanlarida beton

kanallarini qurish ishlari, shuningdek, Beshariq, O'zbekiston, Rishton, Oltiariq, Buvayda hamda Uchko'prik tumanlarida zovurlarni tozalash va meleoratsiya ishlari amalga oshirilmoqda;

- Beshariq tumanida sement zavodini qurish ishlari.

Hududlar bo'yicha qurilish ishlari

(jamiga nisbatan ulushi %da)



Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng kam ulush Jizzax (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **2,1** %i yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **101,2** %), Samarqand (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **2,9** % yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **2,3** marta ko'p) va Andijon viloyatlariga (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining **3,2**%, yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan **108,4** %) to'g'ri keldi.



**O`zbekiston Respublikasi
Davlat statistika qo`mitasi**

**Investitsiyalar va qurilish statistikasi
boshqarmasi**

Nashr uchun mas'ul:

J.Saipov

Aloqa telefoni:

(71) 230-80-56